

3. Normurodov A.N. Jismoniy tarbiya. O'quv qo'llanma. -T.: 2011.

4. Jismoniy tarbiyaning qisqacha tarixi. Excite.com

5. Jismoniy tarbiya va sport tarixi va rivojlanishi. 2015, Jamaica-gleaner.com

6. Jismoniy tarbiya-Umumiy ma'lumot, o'qituvchilarni tayyorlash. Education.stateuniversity.com saytidan tiklandi.

REZYUME. Maqolada o'rta asrlarda jismoniy tarbiyaning rivojlanishi, jismoniy tarbiyaning roli, Markaziy Osiyo allomalarining jismoniy tarbiya haqidagi risolalari, «Alpomish» dostonidagi kurash sport turi haqida, ilk davrlarda yashash uchun kurash bo'lganligi, o'q yoydan foydalanganligi, bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida ma'lumotlar keltirilib o'tiladi.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматривается развитие физического воспитания в Средние века, роль физического воспитания, трактаты среднеазиатских ученых о физическом воспитании, о спортивной борьбе в дастане «Алпамыш», приводятся сведения об использовании стрел, мероприятиях, проводимых в сфере физической культуры и спорта на сегодняшний день.

SUMMARY. The article deals with the development of physical education in the Middle Ages, the role of physical education, the treatises of Central Asian scholars on physical education, the sport of wrestling in the Alpomish, also it is presented information about the use of arrows, events held in the field of physical culture and sports today.

TALABALARNING AXBOROT KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING BA'ZI MASALALARI

G.E.Karlibaeva – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

N.S.Matjanov – *pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, talaba, axborot kompetentlik, kompetensiya, o'qituvchi, fizika, o'qitish jarayoni.

Ключевые слова: информационно-коммуникационная технология, студент, информационная компетентность, компетенция, преподаватель, физика, учебный процесс.

Key words: information and communication technology, student, information competence, competence, teacher, physics, educational process.

Dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish indeksi (ICT Development Index) bo'yicha yetakchilik qilib kelayotgan davlatlarning pedagogik tajribalarida, asosan, o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini fizika ta'limi jarayoniga keng tatbiq etish hamda ta'limning sifat darajasini yangi bosqichga ko'tarishda fizikadan bo'lajak o'qituvchilarda loyihalash va kichik ilmiy tadqiqotchilik kabi kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Jumladan, tabiiy-ilmiy, umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini fanlararo integratsiya asosida o'qitish, kompyuterda dasturlash tilining innovatsion muhitdan foydalanib fizikadan pedagogik dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish va axborot-didaktik ta'minotini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtay nazardan, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida fizika va astronomiya yo'nalishi talabalarini fizika o'qitish jarayonida xalqaro standartlar darajasidagi kasbiy faoliyat turlariga tayyorlashda dasturiy vositalar va ta'lim metodlaridan ta'lim jarayonida samarali foydalanish orqali mehnat bozori talablariga muvofiq kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish zaruratini taqozo qiladi.

Axborotlashgan jamiyatning asosiy talabi o'zlashtirilgan yangi nazariy axborotlar miqdori bilan emas, balki o'zlashtirilgan yangi axborotlarni tegishli sohalar va hayotiy faoliyat davomida amaliyotda qo'llay olish darajasi bilan belgilanadi. Demak, ta'limda erishilgan samaradorlik o'zlashtirilgan axborotlar bilan birga, talabalarining o'zlashtirilgan yangi nazariy axborotlardan faol hayotiy pozitsiyasini egallash uchun samarali foydalana olishi bilan ham belgilanadi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim, talabalarni fizikadan o'zlashtirilgan yangi nazariy axborotlarni o'quv va hayotiy faoliyat turlarining standart va nstandart vaziyatlarda samarali qo'llay olishga tayyorlashi bilan izohlanadi.

XXI asrning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omil sifatida ta'lim e'tirof etilib, o'qituvchilarning axborot kompetentligini rivojlantirishning kreativ texnologiyalari ta'lim jarayoniga tatbiq etishi dolzarb muammo hisoblanadi. Koreya Respublikasida o'tkazilgan xalqaro ta'lim forumida 2030-yilgacha belgilangan konsepsiyada «Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish» [1] istiqbollari, ta'limda innovatsion yondashuv asosida talabalarni axborot kompetentligini rivojlantirish, ijodiy tafakkur, kreativlik va axborotni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyalarini takomil-

lashtirib, bo'lajak o'qituvchilarni axborot kompetentligini rivojlantirish tizimining metodologik va didaktik ta'minotini yaratish va pedagogik jarayonga joriy etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ta'limga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish nazariyasi va amaliyoti, o'quv jarayonida virtual ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish usullari, masofadan o'qitish texnologiyalarini qo'llash muammolariga oid tadqiqotlar mamlakatimizda: B.S.Abdullaeva, A.A.Abdugodirov, U.Sh.Begimqulov, P.M.Jalolova, F.I.Zakirova, G.E.Karlibaeva, N.I.Taylaqov va boshqalarning ishlarida tadqiq etilgan.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llovchi dasturlar pedagogik-dasturiy vositalar bo'lib, ular muayyan bir mavzuning mazmunini aks ettiradi, uni o'qitish va turli o'quv faoliyatlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar taqdim etadi.

Dasturiy ta'minotlar yaratishda: talabalarining yoshi, individual xususiyatlari hisobga olinishi, talabalarda do'stona munosabatlarning shakllanishini ta'minlashi, nazorat muvaffaqiyatsiz bo'lganda so'rovlarni takrorlash kabi omillar hisobga olinishi kerak.

Talabalarining o'quv faoliyatini faollashtirishga ko'maklashuvchi dasturiy vositalar: ilmiy, mazmuniy, pedagogik-psixologik talablarga, tushunarlilik, ko'rgazmalilik, tizimlilik, izchillik, faol harakat, moslashuvchanlik, individual yondashuv tamoyillariga, intellektual salohiyatini rivojlantirish, o'zaro to'ldiruvchanlik hamda qayta aloqa mavjudligi kabi didaktik talablarga javob berishi lozim.

N.Muslimov fikriga ko'ra kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishini nazarda tutadi [5:10].

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda pedagogik modellashtirish usuli eng omimabop bo'lib, model so'zi borliq, tabiat, jamiyat yoki fizika fanida sodir bo'ladigan hodisa va obyektini tasvirlash uchun yaratilgan obrazli ko'rinish sifatida tasvirlanadi. Maqolamizda ta'lim yo'nalishiga nisbatan konseptual tizimli yondashuvlar, fizika o'qitish bosqichlarida, ya'ni ma'ruza, amaliy, laboratoriya, mustaqil ta'lim va to'garak mashg'ulotlari metodologiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, T.Volkovning tadqiqot ishida mashg'ulotni o'tkazishni modellashtirish usuli ma'lum bir pedagogik jarayonni boshidan oxirigacha tizimli va mazmuniy ravishda o'rganishga imkon berishi, ma'lum komponentlarin-

ing uzviyligi va o'zaro uzluksiz ta'sirini, tizimning nafaqat statik va dinamik holatini, balki o'zgaruvchan jarayonlar dinamikasini ham o'rganish mumkinligi aks ettirilgan. A.Ostapenko esa oliy ta'lim tizimini modellashtirish jarayonida maqsadli, mazmunli, jarayonli, diagnostik va natijaviy komponentlarini ajratib ko'rsatadi. Umuman olganda, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish modeli turlicha bo'lishi mumkin, shuning uchun pedagogik modellashtirish jarayoni tadqiqotchiga ilmiy motivatsiya beruvchi ma'lum bir obyektning muayyan tarkibiy komponentlariga qaratiladi [3:95].

Ko'plab tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlarida:

- axborot texnologiyasini o'quv jarayonida model-lashtirish yuqori samara berishi, o'quv jarayonining jadallashishiga olib kelishi, shaxsga yo'naltirilgan ta'limni samarali amalga oshirishi, talabani kasbiy rivojlanishiga zamin yaratishi mumkinligini tasdiqlaganlar;

- fizika bo'limlarini o'qitishga doir yaratilgan elektron ta'minotlar (elektron o'quv qo'llanmalar, virtual laboratoriyalar, animatsiyalar, test dasturlari va boshqalar) talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirishda, amaliy ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda metodik yordam beruvchi vosita bo'lishi, jamiyatimizning hozirgi zamon talablarini tez anglab olish va ularni o'zlashtirish hamda ijobiy hal etishda kasbiy mahoratlarini shakllantirishga yordam berishi, fizik qonun, jarayon va hodisalarni ilmiy-nazariy ifodalashda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaganlar;

- fizikaning bo'limlarini o'qitishga oid dasturiy vositalarni yaratishda didaktik tamoyillardan foydalangan bo'lishi, ularning mazmuni fizika fani o'quv dasturi mavzulari bilan uzviy bog'langan bo'lishi, ta'lim-tarbiya birligini o'zida ifoda etishi, ketma-ket, izchil va ilmiy asoslangan bo'lishi, talabalarining mavzuni o'zlashtirishdagi faolligi, ongliligi va ijodkorligi ta'minlangan bo'lishi,

Adabiyotlar

1. Inncheon declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all Word Education Forum, 19-22-may 2015, Inncheon, Republic of Korea.

2. Карлыбаева Г.Е. Таълимга инновацион технологияларни жорий этиш тамойиллари // Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириш. –Некис: 2018, №4. 115–117-б.

3. Карлыбаева Г.Е. Активизация познавательной деятельности будущих учителей физики // (ISSN 2311-2158) The Way of Science. –Волгоград: 2018. №4(50). -Р. 95–97.

4. Карлыбаева Г.Е. Электронная образовательная среда как часть инновационной образовательной деятельности. // Умумий ўрта таълим тизимида табиий фанлардан электрон ресурсларни яратиш ва ularни тадқиқот қилиш муаммолари ва ечимлари. Республика илмий-амалий анжуман. –Т.: Т.Н.Қори Ниезий номидаги Ўз. Пед.фан. илм.тадқиқот институти. 2020, 138-140-б.

5. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчиси касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари. Пед. фан. док. дисс. автореф. –Тошкент: ТДПУ, 2007, 47-б.

REZYUME. Maqolada fizika o'qitish jarayonida talabalarning axborot kompetentligini takomillashtirishning nazariy masalalari haqida ma'lumotlar bayon etilgan. Talabalarda axborot kompetentligini takomillashtirishda didaktik tamoyillarning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье рассмотрены теоретические вопросы совершенствования информационной компетентности студентов в процессе обучения физике. Приводится информация о значении дидактических принципов в повышении информационной компетентности студентов.

SUMMARY. The article deals with the theoretical issues of improving the information competence of students in the process of teaching physics. Provides information about the importance of didactic principles in improving the information competence of students.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA SPORT TADBIRLARINI TASHKIL ETISH

X.Kuniyazov – assistent o'qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: sport musobaqalari, jismoniy tayyorgarlik, jamoaviy musobaqalar, maktab o'quvchilari, o'qituvchi faoliyati.

Ключевые слова: спортивные соревнования, физическая подготовка, командные соревнования, школьники, педагогическая деятельность.

Key words: sport competitions, physical training, team competitions, school pupils, teacher activity.

Sport musobaqalarining ijobiy xususiyatlarining salmoqli doirasi, maktab o'quvchilari organizmiga funksional ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari ulardan ko'plab pedagogik muammolarni, jumladan, jismoniy tarbiya va sportni, maktab o'quvchilarning sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda foydalanish imkonini beradi: jismoniy tarbiya bo'yicha maktab dasturining ta'lim standartlarini yetkazib berish, istiqbolli o'quvchilarni sport seksiyalari va to'garaklarida muntazam mashg'ulotlarga jalb etish uchun tanlash; sinflar va maktablarning birlashtirilgan jamoalarini tuzish uchun maktab o'quvchilarini saralash; jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv jarayonini takomillashtirish maqsa-

do'rgazmalilikka e'tibor berilgan bo'lishi, nazariy bilim, amaliy ko'nikma va amaliyotda qo'llanish malakalariga ega bo'lishi zarurligi ilmiy-uslubiy jihatdan asoslangan [2:116].

Fizika o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayonida samarali qo'llash, boshqa o'quv vositalari kabi, o'zining yutuq va kamchiliklarga ega.

O'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning talabalar uchun ijobiy ta'siriga quyidagilarni kiritish mumkin: axborot texnologiyalaridan fizika o'qitish jarayonida foydalanish ko'nikmasi va malakasiga ega bo'ladi, abstrakt-mantiqiy fikrlashi, fizik qonun, hodisa, jarayon va obyektlarni ko'z oldiga keltirishi rivojlanadi, o'quv-bilishga qiziqishlari ortadi, mustaqil bilim olish faoliyati rivojlanadi, nazariy bilimlarni qabul qilish, umumlashtirish, tizimlashtirish va amaliyotda qo'llash xususiyatlari rivojlanadi [4:139].

Axborot texnologiyalardan uzluksiz foydalanishning talabalar uchun salbiy ta'siriga quyidagilarni kiritish mumkin: real faoliyatni chegaralovchi va belgilovchi algoritmlash, kompyuter texnologiyasiga texnik jihatdan qaram bo'lib qoladi, og'zaki nutqning (kommunikativ kompetensiya) rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi, psixologik-fiziologik chegaralanish bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, fizika o'qitish jarayonida o'qituvchining ma'lum bir uslubiy yondashuviga konseptual asoslanishi, o'qitishda axborot kompetentligini texnologik zanjiri aniq va maqsadga muvofiq ravishda qurilishi, shaxsga yo'naltirilgan va tabaqalashtirilgan tamoyillarini hisobga olgan holda o'qituvchi hamda talabalarining o'zaro birgalikdagi harakatini, bo'lajak kasbiy faoliyat kompetentlikni shakllanganlik darajasini baholash mezonlari va vositalarini o'z ichiga olishi kerak.

didaktik maktab o'quvchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligi darajasini aniqlash; maktab o'quvchilarning to'g'ri motor rejimini saqlash, tananing hayotiy faoliyati uchun maqbul sharoitlarni ta'minlash va aqliy qobiliyat darajasini oshirish.

Sport musobaqalari sinfdan tashqari mashg'ulotlarning eng qiziqarli, hayajonli shakllaridan biridir. Ular asosan, o'quvchilarni tizimli jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish, maktab o'quvchilarning ommaviy jismoniy tarbiya harakatini rivojlantirish, bolalarning salomatligi, jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini mustahkamlash, bolalar jamoasini birlashtirish vazifalarini hal qiladi.